

MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING YOSHLARGA TA'SIRI VA ULARNING MA'NAVIYATINI OSHIRISHDAGI O'RN

Andijon davlat pedagogika instituti
3-bosqich talabasi **Odilov Komiljon**

Annotatsiya: Milliy urf-odatlar, an'analar va diniy qadriyatlar yoshlarning shaxsiyati, vatanparvarlik hissi, odoq-axloq me'yorlari va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda muhim omil ekani tahlil qilinadi. Shuningdek, qadriyatlar asosida tarbiya olgan yoshlarning jamiyatdagi faolligi, insoniylik fazilatlarini va kelajak avlodga o'rnatq bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Maqolada milliy va diniy qadriyatlarning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda ular orqali yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishning samarali usullari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Milliy va diniy qadriyatlar, insoniylik fazilatlarini, vatanparvarlik, milliy g'urur, barkamol shaxs, shaxsiy qadriyat.

Annotation: This article analyzes how national traditions, customs, and religious values play a crucial role in developing young people's personalities, patriotism, moral standards, and social responsibility. It also discusses the active participation of youth educated based on values, their humanistic qualities, and their role as examples for future generations. Additionally, the article highlights the importance of national and religious values in modern education and presents effective methods for enhancing the spiritual development of young people through these values.

Keywords: National and religious values, human virtues, patriotism, national pride, developed personality, personal values.

Аннотация: В данной статье анализируется, как национальные традиции, обычаи и религиозные ценности играют важную роль в формировании личности молодежи, чувства патриотизма, моральных норм и социальной ответственности. Также рассматривается активное участие молодежи, воспитанной на основе ценностей, их гуманистические качества и роль примера для будущих поколений. Кроме того, в статье подчеркивается значение национальных и религиозных ценностей в современном образовательном процессе и представлены эффективные методы повышения духовного развития молодежи через эти ценности.

Ключевые слова: Национальные и религиозные ценности, человеческие добродетели, патриотизм, национальная гордость, развитая личность, личные ценности.

Milliy va diniy qadriyatlar har bir xalqning ma'naviy boyligi, tarixiy merosi va madaniyati ifodasidir. Ular insonning qalbini poklaydi, ongu shuurini boyitadi va

to'g'ri hayotiy yo'lni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashda milliy va diniy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Kelajak avlod tarbiyasi bugungi kunning muhim va dolzarb muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Go'zal xulq va atvor albatta insonni bezab turuvchi narsalardir. Milliy ma'naviyatini, milliy qadriyatini o'z dinini bilgan xalq hech qachon o'zligini yo'qotmaydi.

“Shaxsiy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati, go'zalligi, ijtimoiy mavqei, qobiliyati, iste'dodi va intellektual salohiyati bilan bog'liq qadriyatlardir. Umuman olganda, shaxsiy qadriyatlar deganda, shaxsning ijtimoiy faoliyatida zaruriy ehtiyojga aylangan, turmush tarzini yaxshilashga ko'mak beradigan, amaliy faoliyati uchun qadrlil bo'lgan narsa-hodisalar majmui tushuniladi”²⁴ Shaxsiy qadriyat yosh avlod qolaversa, barcha insonning ma'naviy qiyofasi hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar – xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, an'analari, madaniy merosi va milliy g'oyalarining mujassamidir. Yoshlarning bunday qadriyatlarga tayanishi ularda vatanparvarlik, millatga sadoqat, ota-onaga hurmat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi, milliy san'at, urf-odat va bayramlarning yoshlarga ko'rsatadigan ta'siri katta. Diniy qadriyatlar esa insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Din yoshlarni mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat, hamjihatlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, diniy ta'limotlar yoshlarni turli yot g'oyalardan, buzg'unchi oqimlardan himoya qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligi yoshlarda mustahkam e'tiqod va sog'lom dunyoqarash shakllantirishga yordam beradi. Masalan, milliy bayramlarimizni diniy marosimlar bilan uyg'unlashtirish xalqimizning qadimiy madaniyatini saqlash bilan birga, yoshlar tarbiyasida samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, davlat siyosatida ham yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishda qadriyatlarga asoslangan dasturlar ishlab chiqilib, ta'lim muassasalarida maxsus darslar, seminarlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

1. Milliy qadriyatlarning yoshlar hayotidagi ahamiyati

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, an'analari, madaniy merosi, til va san'atida mujassam bo'lgan boy ma'naviy xazinasidir. Yoshlar milliy qadriyatlardan saboq olar ekan, ularda:

- vatanparvarlik,
- ota-onaga hurmat,
- insonparvarlik,

²⁴ Нурматова М.А. Шахс камолотида ахлокий ва эстетик қадриятларнинг уйғунлиги // Монография. – Тошкент: Университет, 2009. – 52 б

- o'zligini anglash,
- milliy g'urur kabi tuyg'ular shakllanadi.

Masalan, "Navro'z", "Mustaqillik bayrami" kabi milliy tantanalar, xalq og'zaki ijodi, milliy kiyimlar va hunarmandchilik an'analari yoshlarni tarixiy ildizlarga bog'laydi. Shu bilan birga, ularning milliy o'zligiga sadoqatini oshiradi.

2. Diniy qadriyatlarning ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni

Din – insonni ezgulikka, halollikka, mehr-oqibat va sabr-toqatga chorlaydi. Diniy qadriyatlar yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytiradi, ularni buzg'unchi g'oyalardan asraydi. Shu bois diniy qadriyatlarni sog'lom shaklda targ'ib etish yoshlar tarbiyasida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

3. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligi

Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi yoshlar tarbiyasida samarali natija beradi. Masalan, milliy bayramlarimizda diniy marosimlar va qadimiy an'analarni uyg'un holda namoyon bo'ladi. Bu esa yoshlarning tarixiy meros va diniy e'tiqodga hurmatini oshiradi.

O'zbek xalqining qadimiy turmush tarzi ham diniy qarashlar bilan uyg'unlashib, "kattaga hurmat, kichikka izzat", "mehmonnavozlik" kabi fazilatlarni shakllantirgan. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham yoshlarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Globallashuv sharoitida qadriyatlarga tayanish

Globallashuv davrida yoshlar turli madaniy oqimlarga duch kelmoqda. Internet, ommaviy madaniyat, chet el g'oyalari ularning ongiga tez ta'sir qilmoqda. Shu sharoitda milliy va diniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiya berish – yoshlarni turli yot oqimlardan himoya qilishning eng ishonchli yo'lidir.

Milliy va diniy qadriyatlar – yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda eng ishonchli manbadir. Ularning uyg'unligi yoshlarda vatanparvarlik, milliy g'urur, sog'lom e'tiqod, mustaqil fikrlash va insonparvarlik kabi fazilatlarni qaror toptiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy va diniy qadriyatlar yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning eng muhim manbaalaridan biridir. Ularning uyg'unligi yoshlarni barkamol shaxs, vatanparvar, ma'rifatli va e'tiqodli inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir ta'lim muassasasi, oila va jamoatchilikning asosiy vazifalaridan biri – qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlar ongiga chuqur singdirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot, 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid qaror va farmonlari.
4. G'afurov S. *Milliy qadriyatlar va tarbiya.* – Toshkent: O'qituvchi, 2017.